



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

maktabgacha va

maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

maktabgacha ta'lim tashkiloti

talim muhojir ruh tarbiyachisi

ning

"Ilk qadam" maktabgacha dasturi uchunchi

nasl naslga

"Mening Vatanim O'zbekiston"

mavzusida tashkiloti

FAOLIYAT ISHLANMASI

Sentabr oyining 1-haftasi

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.


Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

Tayyorlov guruhlariga sentabr oyi 1-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: Maktabga tayyorlov guruhi

Oy mavzusi: Vatan, oila va totuvlik–baxtli bolalik poydevori

Hafta mavzusi: Mening Vatanim –O‘zbekiston

Ta’limiy faoliyat maqsadlari:

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarda lug‘atni boyitish bo‘yicha ishlarni davom ettirish, nutqning ravon bo‘lishiga e’tibor berish, bolalarning qadimiy ziyoratgohlarga qiziqishi va mehrini uyg‘otish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari- ga qiziqishini rivojlantirish. Tarixiy joylar bilan g‘ururlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: bolalarda yurtimiz shaharlariga qiziqishni va yurtimizga nisbatan muhabbat hissini uyg‘otish.

Didaktik jihozlar: Yurtimiz shaharlari rasmi tushirilgan plakat, bolalar bog‘cha- si va shaharlarining fotosuratlari AKT.

Ta’limiy faoliyatning borish yo‘li:

Salom: - Assalomu alaykum, aziz bolajonlar, bugungi mashg‘ulotimiz shaharlarimizni, jonajon O‘zbekistonimizning dunyoga mashhur shaharlarini, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga sayohat qilamiz. Mana quyidagilarni qarab qaysi shaharda ekanligimizni topasiz. Biz hozir qayerdamez.

Bolalar: - Biz hozir Mustaqillik maydonidamiz.

Tarbiyachi: - Mustaqillik maydoni yurtimiz Toshkent shahrining yuragi bolmish Mustaqillik maydonidir. U yurtimiz go‘shaga xalqimiz bilan birgalikda sayyohlar ham hozir qaytib keladi. Bu maydonga tutash Xotira va qadrlash maydoni, Motaqaddas joylashgan.



Ayting-chi, siz ota-onaingiz bilan poytaxtimizning diqqatga sazovor qaysi joylarida bo'lgansiz?

(Bolalar javobi tinglanadi.)

Tarbiyachi: - Barakalla, keyingi bekatimiz Samarqand shahri, diqqat bilan kuzating, bu shaharning o'ziga xosligi nimada?

Bolalar: - Samarqandda tarixiy obidalar ko'p.

Tarbiyachi: - Barakalla, mana, Registon maydoniga ham yetib keldik.

Registon maydonida Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari bor. Registon qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi bo'lib, bu yerda 3 ta madrasa qad ko'targan.

Amir Temur hukmronligi davrida Registon Samarqandning markaziga aylantirildi. Mirzo Ulug'bek davrida esa ahamiyati bundan-da ko'proq oshdi.

(Bolalar ekranda Registon maydoni suratlari ko'rsatiladi.)

Bolalar: Registondagi me'moriy obidalar o'zining rang-barang naqshlari, inqilobkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan Markaziy Osiyoning bosh shahri sifatida hisoblanadi. U haqida Temur bobomiz faxr bilan: "Kimki bizni yaratimiz, shubha qilsa, biz qurgan binolarga boqsin", deganlar. Endi Registon maydonidagi obidalar olgan she'rlarimizni esga olamiz.

1-bola: Gumbazlar maydonida dildor Registon,
Yulduz o'qib o'sir, gulzor Registon.

Ismi ulug', faxriy Registon,
Bayramlaring kuni qutlug' Registon!

2-bola:- Shaharlar har yeri dard,
Yer yuzin sayqali Samarqand.
Bulbullar bog'larin tark etgan,
Ko'zimiz gavhari Samarqand.

3-bola:- Bag'ring to'la mehribonlik bilan,
Boglarinda sho'x bulbullar sayraydi,
Quchog'ingda farzandlaring yayraydi,
Yer yuzining sayqali Samarqand.

Tarbiyachi: - Ofarin, bolajonlar! Qadimgi Samarqandda hamma o'z xohishi bilan mana bu uchburchakni to'rtburchak, aylana shakllarini olsin-chi.

Endi shakllarga qarab guruhlariga bo'linamiz. Mana bu yerda 3 ta pazl bor. Ulug'bek, Sherdor, Tillakori.

Sizlarga shu madrasalar rasmini pazllar yordamida yig'ib berish uchun bir daqiqa vaqt beriladi.

(Bolalar "Samarqand" qo'shig'i sadolari ostida topshiriqni bajaradi.)

Tarbiyachi: - Barakalla, birinchi bo'lib uchburchak guruhi topshiriqni bajaradi.

(Bolalar yasagan madrasa haqida ma'lumotlar aytishadi.)

Tarbiyachi: - Rahmat, ofarin. Endi aylana bo'lib turamiz va tetiklashni mashqni bajaramiz.

O'ng qo'limiz o'ynaydi,

Chap qo'limiz o'ynaydi.

Oldinga, orqaga,

Aylanamiz bir joyda.



Tarbiyachi: - Bolalar biz qaysi shaharga yetib keldik?

Bolalar: - Buxoro shahriga.

Tarbiyachi: - Barakalla, Buxoro ham tarixiy obidalari bilan dunyoga mashhur shahar. Uning Minorayi kalon, Ark kabi me'moriy yodgorliklari butun dunyoga mashhur. E'tibor bering-a, qadimda Buxoroda mana bunday milliy liboslar kiyilgan.

(Milliy kiyimlar rasmi ko'rsatiladi.)

Bu shahardagi milliy naqshlar bilan bezatilgan mehmonlar xorijlik mehmonlar hayratiga sazovor bo'lmoqda. Endi Buxoroyi sharifning minoralaridagi qismlar yo'qolib qolibdi. Mana bu pazllardan foydalanib, tarixiy obidalarni tiklaymiz.



Tarbiyachi: - Barakalla, Buxoro bolalar ekansiz. Endi sayohatimizning so'nggi bekatida to'xtaymiz. Mana biz qaysi shaharga yetib keldik?

Bolalar: - Xiva shahriga yetib keldik.

Tarbiyachi: - Barakalla, Buxoro bolalar ekansiz. Endi sayohatimizning so'nggi bekatida to'xtaymiz. Mana biz qaysi shaharga yetib keldik?

Bolalar, endi hammamiz Xivadagi minoralarini ko'raymiz. Kim xohlasa sham, kim rangli tuz bilan, kim xohlasa rangli bo'yoqlar bilan Xiva minoralari rasmini chizsin. Hamma o'z xohishiga ko'ra ranglar joylashgan stollar atrofiga o'tirishi mumkin. Mashg'ul bo'lgan bolalar rag'batlantiriladi.

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

«Mening shahrim»

Maqsad: bolalar kublar va turli konstruktorlardan shahar qurilishini o'rganish, shakllarni nomlash va ulardan qurilishda foydalanishni o'rgatish. Bolalar ranglar, shakllar, ranglar va shakllarni farqlash malakalari mustahkamlanadi.

Kerakli jihoz va materiallar: kublar, geometrik shakl, manzara tasviri, rangli bo'yoqlar, rangli tuz, rangli sham, shahar tasviri tushirilgan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Mening shahrim» mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. Bolalar bilan shahar qurilishini rejalashtirish.
3. Shaharni konstruksiyalash.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va

rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z kompozitsiyalarini mayda o'yinchoqlar (avtomobillar, bayroqchalar, daraxt va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini tushuntirib beradi, rasimga aloqador so'zlar bilan tanishtiradi.

E'tiborga mol i k jihati: bolalarning jamoa bo'lib ishlashi va hayot xavfsizligi qodilariga ahamiyat beriladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

“Yosh sayyohlar»

Maqsad: bolalarning ona yurt haqidagi tushunchalari kengayadi. Jamoada o'zaro fikr almashish ko'nikmalari rivojlanadi.

Kerakli jihoz va materiallar: rasmlar, AKT, ryukzaklar, kepklar, fotoapparat, o'yin uchunpullar, xarita, durbin, kompas, ona yurtimizning diqqatga sazovor maskanlari tasvirlangan suratlar.



Faoliyatning borishi:

1. Shahar yoki ko'cha bo'yicha ekskursiya yo'nalishini rejalashtirish.
2. Kerakli jihoz, buyumlar to'plamlarini ko'rib chiqish.
3. AKT orqali shahar yoki ko'cha bo'ylab ekskursiya.
4. Yosh sayohlar ekskursiyasini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z ekskursiya yo'nalishlarini tuzib chiqishni o'rgatadi.

E'tiborga molik jihati: har bir bolaning faoliyatiga e'tibor qaratish va hayot xavfsizligi qoidalariga ahamiyat Beriladi.

Fan va tabiat markazi

O'lka rel'efi (shahar, vodi, daryolar)

Maqsad: bolalar relief (shahar, vodi, daryolar rel'efi) tushunchasi bilan tanishadilar. O'lkamiz rel'efi maketini yaratish, shahar, vodi, daryolarning ahamiyatini markazdagi jihozlar orqali o'rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qum, suv, loy, turli tosh, shakl, chelak, belkurakcha, haskash, yelim panjaralar.

Faoliyatning borishi:

1. «Mening o'lkam» mavzusida videofilm yoki suratlarni ko'rib chiqish.
2. Bolalar bilan o'lkamiz rel'efi maketini rejalashtirish.
3. O'lkamiz mini-rel'efini yaratish.
4. Bolalar ishlarini tahlil qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z kompozitsiyalarini mayda o'yinchoqlar (archalar, daraxtlar, qayiqchalar va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini tushuntirib o'tadi.

E'tiborga molik jihati: tasavvur va nutq faoliyatining rivojlanishi hayot xavfsizligi asosida.

San'at markazi

«O'zbekistonning milliy bayramlari» (tasviriy faoliyat)

Maqsad: bolalar tomonidan milliy bayramlarini bilish, bayramlarning o'xshashlik va farqlarini anglash, bayram odatlari haqidagi tasavvurlari kengayadi.

Kerakli jihoz va materiallar: bayram suratlari to'plami, AKT, qog'oz, bo'yoqlar, bo'yoqlar uchun maxsus vashlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Milliy bayramlar» mavzusi haqida suhbat.
2. Bayramlar haqida suhbat.
3. Bolalar tomonidan ixtiyoriy bayramlar haqida suhbat.
4. Rasm chizish jarayoni.
5. Rasmlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalardan bayramlar haqida qo'shiqlar aytib berishini so'rash, ota-onalar uchun rasmlar ko'rgazmasini tashkil qilish.

E'tiborga molik jihati: ish jarayonida tartibli o'zodlik berish, ota-onalar uchun ko'rgazma tayyorlash jarayonlariga qatnashish.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish markazi

Vatanimizning qadimiy shaharlari (Samarkand, Buxoro, Xiva)

Maqsad: bolalar davlat ramzlarini, ko'cha va mahallalarining nomi, Vatanimizning qadimiy shaharlari haqidagi, ularning joylashuvi va iqlimi haqida ma'lumot olishga bo'ladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: O'zbekistondagi shaharlarning suratlari, davlat ramzlari xaritasi, AKT, slaydlar, haykalchalar, maketlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Vatanimizning qadimiy shaharlari» mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. Suratlarda bo'yicha hikoyalar tuzish.

3. O'lkamizning diqqatga sazovor joylari suratlarini ko'rib chiqish.

4. Mustaqil yoki tarbiyachi yordamida shaharlar nomini o'qish, diqqatga sazovor joylarni ko'rish.

Qo'shimcha: shaharlarning qadimiy binolari maketlarini ko'rib chiqish va xarita bilan ishlashni taklif qilish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning yangi so'zlarni o'zlashtirishiga va xarita haqidagi tushunchalariga ahamiyat beriladi.

Fan va tabiat markazi

Sabzavot va mevalardan bo'yoq olish (lavlagi, sabzi, bodring, ko'katlar, piyoz, yong'oq barglari va maysalar)

Maqsad: bolalarning o'lkamizning ne'matlari, sabzavot va mevalarning xususiyatlari haqidagi bilimlari oshadi. Loy, suv va qumni bo'yash bo'yicha amaliy mashgulotlar o'tkazishni, ulardan tabiiy bo'yoqlarni olish malakasi hosil bo'ladi.

Kerakli jihoz va materiallar: fartuk, sabzavotlar, mevalar, taxtakach, pichoq, qo'lda shaylar, yovchi moslama, idish, qum, loy, suv.

Faoliyatning maqsadi

1. Shaharlar nomini o'qish va sabzavotlarni aniqlash.

2. «Tabiat» mavzusi bo'yicha rasmlar bilan tanishish (nimadan qaysi rang olish mumkin).

3. Tanlangan mevalardan sharbat olish bo'yicha amaliy tajriba o'tkazish.

4. Qum, suv va loyga rang berish.

5. Bolalar ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazishni o'rgatish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalardan qo'shimcha ranglar hosil qilishni o'rgatadi.

E'tiborga molik jihati: ish kechirish-kutubxona talablariga amal qilishiga va hayot xavfsizligi asoslariga ahamiyat beriladi.

